

“BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH”

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

99-umumiy o'rta ta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Yuldasheva Sojida Muxammadiyevna

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritiladi. O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim.

Kalit so'zlar: savod, mashqlar, talaffuz, savodxonlik, tayyorlov davri, ta'lim.

O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim. Fikrini o'stirish, fikrlashga o'rgatish, kelajakka sog'lom fikrli bolani tarbiyalash ona tili va o'qish savodxonligining asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bola fikrining kengayishida sodda so'zlardan murakkab so'zlarga o'tib borishi yosh xususiyatlariga moslab davlat ta'lim standartlari asosida joylanganligi o'ta muhimdir. darslarni to'g'ri va samarali tashkil qila olish o'qish samaradorligini oshiradi, ma'naviy ozuqa olishning yana bir yo'li hamdir. Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta'lim sohasidagi tub burilishlar aynan har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan yosh avlod ta'lim tarbiyasi uchunligi hech birimizga sir emas. Buning uchun ta'lim sifatini oshirish maqsadida „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Davlat ta'lim standarti”ning yo'lga qo'yilishi, boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiya masalalariga kuchli e'tibor qaratish va bu yo'lda o'qituvchi, pedagoglar

oldiga bir qancha talablar qo'yilmoqda. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: "Davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish barkamol inson tarbiyasiga ma'sul o'qituvchilar zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o'z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas'uliyatini yuklagan". "Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilanishi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir". Birinchi prezidentimiz I.Karimovning bu so'zlaridan mustaqillikka erishganimizdan buyon yoshlarga qanday e'tibor berilayotganligi qanday imkoniyatlar eshigi ochib berilayotganligini ko'rsak bo'ladi. Savod o'rgatish jarayonida —Alifbe darsligi universal qo'llanma sifatida foydalaniladi. Darslikda berilgan kichik hajmli barcha janrdagi asarlar rasm, tasvir bilan berilgan. Chunki, maktabgacha ta'lim muassasalaridan ta'lim dargohiga ilk dars jarayonlarida o'quvchining yosh xususiyati hisobga olingan. Dars davomida o'rganilgan yoki sinfdan tashqari mashg'ulotda o'zi o'qigan asar voqealarining sodir bo'lgan o'rnini tasvirlash va faslini belgilash bilan bog'liq bo'ladi. Atrofdagi dov-daraxtlar, tabiat hodisalari, kishilar mehnati ham yil fasliga bog'liq. Buning uchun, avvalo, matn mazmunida voqealar rivoji va tabiat manzaralarning aks etgan-etmaganligini aniqlash zarur. Bordi-yu, faslga ishora qiluvchi fikrlar bo'lmasa, o'quvchi o'zi istagan faslni tanlab olib, tasvir elementlarini qo'shishi mumkin. Uslubiy adabiyotlarda va o'quv qo'llanmalarida tasvir va tasviriy insholar haqida bir qator ma'lumot berilgan. Tasvir – voqea-hodisalar, tabiat, qahramonlar va personajlarning tashqi ko'rinishini bayon qilish usuli. Unda syujet chizig'i bo'lmaydi, qahramonlar qatnashmaydi. Balki shu harakatni chekkadan turib kuzatuvchi tasvirlaydi. O'quvchi matn mazmunini birdaniga tasvirlay olmaydi. Tasvirlashdan ko'ra ko'proq matnni qayta hikoya qilishga moyilroq bo'ladi. Ularda bunday ko'nikmalarni hosil qilish uchun tasvir elementlari yuzasidan bir qator mashqlar bajarishga to'g'ri keladi. Ular personajlar va kishilarning tashqi ko'rinishi, tabiat tasviri, ya'ni voqea-hodisa bo'lgan joyning bayoni va bevosita voqea-hodisalar

o‘zining tasviri berilgan o‘rinlarni topish, tahlil qilishga o‘rgatiladi. O‘quvchilar tasvir uchun ishlatilgan so‘zlarni tahlil qilishga, ular ishtrokida gap tuzish orqali asta-sekin yuqoridagi tushunchalarni egallashga tayyor bo‘la boradi. Kitobda berilgan rasmlarda ma‘lum bir matn voqealari va tabiat tasvirlanadi. Matnni tasvirlashga o‘rgatish uchun dastlabki ishlarni kitobda berilgan rasmlar bilan ushbu rasmlarga mos keluvchi o‘rinlarni o‘qish va ularni taqqoslashdan boshlash mumkin. O‘quvchilar matnni o‘zlashtirib olishlari, tasavvur qilishlari uchun rasmlarning ahamiyati juda kata. Chunki ular ba‘zi o‘rinlarda eshitganlaridan ko‘ra ko‘rganlarini ko‘proq esda saqlab qoladilar. Hali avtomatik o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lmaganliklari uchun ham bu davrda rasmlar matnlarning o‘rni beqiyosdir. Kitoblarda berilgan rasmlardan tashqari, har bir hikoya, ertaklar yoki ilmiy-ommabop asarlarni o‘rgatish jarayonida ham rasmlardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini shakllantirishga katta ahamiyatga ega. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq eshitganlaridan ko‘ra ko‘rganlarini eslab qoladilar, ular haqida fikr-mulohazalar bildirish, yangi hikoyalar yaratish ya‘ni fantaziya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Rasmlar– o‘quvchilarni ijodkorlikka, hozirjavoblikka, eng muhimi mustaqil fikrlovchi komil inson bo‘lib ulg‘ayishlarida muhim vosita hisoblanadi. Rasmlar ko‘proq tabiat fonida beriladi. Bu hol mavzuni syujet voqealarining sodir bo‘lgan o‘rni bilan birgalikda o‘zlashtirib olish imkonini beradi. Alifbe darsligidagi matnlarga tanlangan tasvirlar ham turli mavzularga bo‘lib, ularga uchun texnik vositalardan foydalanib, syujetga mos multafil‘m namoyishi, bayram sayllari haqida videoroliklar, ertaklar, avdiolarni eshittrish ham o‘quvchilarda mustaqil tasviriy va nutqiy qobiliyatlarini o‘shishiga yordam beradi. Demak, rasmlar – boshlang‘ich sinf darslarida matnning mazmunini o‘zlashtirib olishga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash, turli muammoli vaziyatlarda ijobiy xulosa chiqarish, o‘z-o‘zini tarbiyalash hamda kreativ qobiliyatlarini shakllantiradi. Ona tili – nutq, o‘qish va yozish sohasidagi ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar o‘quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o‘qish ko‘nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, o‘z ona tilini o‘rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni

o'qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu kamchiliklarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til normalarini, ya'ni imloviy va punktuasiyasi savodli yozuvni, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarni shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda adabiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili fani hal etadi va boshlang'ich sinflar ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo'lib, unda o'quv fanining mazmuni va hajmini shuningdek, shu fandan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga qo'yilgan asosiy talablarni belgilaydigan bo'ladi. Dastur talablarini o'qituvchi va o'quvchilar bajarishlari shart, uni kengaytirish va qisqartirishga yo'l qo'yilmaydi. Boshlang'ich sinflarning ona tili dasturi ikki qismdan iborat:

1. Uqtirish xati.

2. Asosiy qismi. Uqtirish xatida ona tili fanining tutgan o‘rni, uning vazifalari ko‘rsatilib, metodik yo‘l-yo‘riqlar beriladi.

Dasturning asosiy qismi 3 bo‘lim, u har bir sinfda o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar hajmi ko‘rsatilgan.

Dasturning bo‘limlari:

“Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish”,

“O‘qish va nutq o‘stirish”,

“Grammatika, imlo va nutq o‘stirish”dan iborat.

Har bir bo‘lim bir necha qismlardan iborat. Masalan, “O‘qish va nutq o‘stirish” bo‘limi, “Sinfda o‘qish” va “Sinfdan tashqari o‘qish”ni; sinfda o‘qish o‘z navbatida “O‘qish mashg‘ulotlarini”, “Matn ustida ishlash” qismlarini o‘z ichiga oladi va hokazo.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki “til - millat ko‘zgusi”. Shunday ekan til qonuniyatlarini to‘liq anglab yetishlik har bir inson uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

2. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).

3. “PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.

4. <http://www.tdi.uz/uz> Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi